



## Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-sentabr)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida respublika korxonalarini tomonidan 9660,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 102,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 86,0 % ni tashkil etdi.



### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning -2,3 % ga a hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning -52,0% ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 55,8% ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 25,0 % ga pasayish kuzatildi.

\***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 81,6 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini tashkil etdi.

## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ohak tosh qazib olish – 30,3% ga oshgan bo'lsa, tabiiy qum-24,3% ga, gaz kondensati - 9,1 % ga, chaqiq tosh- 14,2 % ga hamda tabiiy gaz qazib olish-8,7 % ga pasaygan.



Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
<b>Ohak tosh , ming t.</b>	142,8	186,1	43,3
<b>Tabiiy qum, ming t.</b>	521,2	394,7	-126,5
<b>Tabiiy gaz, mln. kub.m.</b>	2228,1	2033,9	-194,2
<b>Gaz kondensati, ming t.</b>	90,9	82,7	-8,2
<b>Chaqiq tosh, ming t.</b>	275,8	236,6	-39,2
<b>Qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid, ming t.</b>	99,2	56,9	-42,3




### Ishlab chiqaradigan sanoat

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8307,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,0 % ini tashkil etdi.




## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 % ni (2019- yil yanvar-sentabr oylarida - 1,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 63,9 % (68,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,1 % (4,6 %) va quiyi texnologiyalisi – 30,2 % (24,9 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 54,9 % (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 113,3%), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,9 % (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 10,6 % (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 123,2 %)ni, boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,6 % (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,1 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 215,1 ming tonna Portlandsement (2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 76,7 % ga o'sgan), 4,6 ming tonna tozalangan gurich (58,5 %) 69,9 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (21,0 %) hamda 8,0 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (7,1 %) yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	25,9	30,1	4,2
Aroq, ming liter 100 % li spirit	2956,7	2303,2	-653,5
Paxtadan yigirligan ip, t.	5931	7303	1372
Polietulen, ming t.	276,1	264,0	-12,1
Polipropilen, ming t.	72,6	73,5	0,9

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1217,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,6 %ini tashkil etdi).

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 52,0 % ga oshganligi kuzatildi.

### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kVt/s	2552,8	3129,0	576,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	30,5	21,4	-9,1
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	47565,8	51676,0	4110,2

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 53,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (0,6 %) ini tashkil etdi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Fargi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	3972,9	4606,9	634,0
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	8385,5	8615,2	229,7
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	28379,1	31468,6	3089,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 16,0 % ga,xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar – 10,9 % ga suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar -2,7 % ga oshganligi kuzatildi.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1747,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 4,5 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 18,1 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan olshtirganda 2020- yil yanvar-sentabr oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 62,5 % dan 62,7 % gacha oshganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 5,3 % (2019- yil yanvar-sentabr oylarida 6,7 %) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 20,4 % ni, shuningdek, Xo'jayli tumani 8,5 % ni, To'rtko'l tumani 8,2 % ni, Beruniy va Ellikqal'a tumanlari 7,6 % ni, Qo'ng'iroq tumani 7,0 % ni Qonliko'l tumani 6,4 % ni hamda Taxiatsosh tumani 6,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (104,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bo'zatov (214,4 %), Taxiatsosh (131,2 %), Qonliko'l (120,2 %), Nukus (119,2 %), Taxtako'pir (119,1 %), Shumanay (118,5 %) hamda Mo'ynoq (114,3 %) tumanlarida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1747,9</b>	<b>100</b>	<b>104,5</b>
<b>Amudaryo</b>	90,0	5,1	102,2
<b>Beruniy</b>	132,2	7,6	101,4
<b>Bo`zatov</b>	13,8	0,8	214,4
<b>Qonliko'l</b>	112,3	6,4	120,2
<b>Qorao'zak</b>	31,7	1,8	100,0
<b>Kegeyli</b>	40,1	2,3	100,1
<b>Qo'ng'irot</b>	122,4	7,0	102,4
<b>Mo'ynoq</b>	41,9	2,4	114,3
<b>Nukus</b>	40,9	2,3	119,2
<b>Taxiatosh</b>	110,4	6,3	131,2
<b>Taxtako'pir</b>	89,0	5,1	119,1
<b>To'rtko'l</b>	143,5	8,2	100,6
<b>Xo'jayli</b>	148,3	8,5	102,0
<b>Chimboy</b>	95,8	5,5	111,4
<b>Shumanay</b>	46,5	2,7	118,5
<b>Ellikqal'a</b>	133,0	7,6	101,2
<b>Nukus sh.</b>	356,1	20,4	91,7

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 20,1 %, shuningdek, To'rtko'l tumani 9,6 % ni, Qonliko'l va Taxiatosh tumanlari 8,0 % ni, Taxtako'pir va Xo'jayli tumanlari 6,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Bo`zatov (276,4 %), Taxiatosh (193,8 %), Mo'ynoq (143,9 %), Taxtako'pir (142,7 %), Qonliko'l (132,7 %), Ellikqal'a (128,4 %), va Chimboy (113,6 %) tumanlarida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-sentabr oylariga
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1096,5</b>	<b>100</b>	<b>104,9</b>
<b>Amudaryo</b>	56,5	5,1	101,4
<b>Beruniy</b>	66,7	6,1	89,2
<b>Bo`zatov</b>	11,0	1,0	276,4
<b>Qonliko'l</b>	87,3	8,0	132,7
<b>Qorao'zak</b>	16,0	1,5	101,4
<b>Kegeyli</b>	23,5	2,1	89,4
<b>Qo'ng'irot</b>	56,6	5,2	85,2
<b>Mo'ynoq</b>	32,0	2,9	143,9
<b>Nukus</b>	23,7	2,2	110,7
<b>Taxiatosh</b>	87,4	8,0	193,8
<b>Taxtako'pir</b>	75,8	6,9	142,7
<b>To'rtko'l</b>	105,5	9,6	107,3
<b>Xo'jayli</b>	75,4	6,9	83,9
<b>Chimboy</b>	70,3	6,4	113,6
<b>Shumanay</b>	19,7	1,8	97,8
<b>Ellikqal'a</b>	68,5	6,2	128,4
<b>Nukus sh.</b>			

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 20,8 %, shuningdek, Xo'jayli tumani 11,2 % ni, Beruniy va Qo'ng'irot tumanlari 10,1 % ni hamda Ellikqal'a tumani 9,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida respublika o'sish sur'ati (103,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Shumanay tumanida (140,2 %), Nukus tumanida (133,2 %), Xo'jayli tumanida (131,3 %) hamda Qo'ng'irot tumanida (123,8 %) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>651,4</b>	<b>100</b>	<b>103,8</b>
<b>Amudaryo</b>	<b>33,5</b>	<b>5,2</b>	<b>103,6</b>
<b>Beruniy</b>	<b>65,5</b>	<b>10,1</b>	<b>117,6</b>
<b>Bo`zatov</b>	<b>2,8</b>	<b>0,4</b>	<b>112,7</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>25,0</b>	<b>3,8</b>	<b>90,5</b>
<b>Qorao'zak</b>	<b>15,7</b>	<b>2,4</b>	<b>98,6</b>
<b>Kegeyli</b>	<b>16,6</b>	<b>2,6</b>	<b>120,5</b>
<b>Qo'ng'irot</b>	<b>65,8</b>	<b>10,1</b>	<b>123,8</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>9,9</b>	<b>1,5</b>	<b>68,7</b>
<b>Nukus</b>	<b>17,2</b>	<b>2,6</b>	<b>133,2</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>23,0</b>	<b>3,5</b>	<b>58,8</b>
<b>Taxtako'pir</b>	<b>13,2</b>	<b>2,0</b>	<b>61,1</b>
<b>To'rtko'l</b>	<b>38,0</b>	<b>5,9</b>	<b>85,6</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>72,9</b>	<b>11,2</b>	<b>131,3</b>
<b>Chimboy</b>	<b>25,5</b>	<b>3,9</b>	<b>105,9</b>
<b>Shumanay</b>	<b>26,8</b>	<b>4,1</b>	<b>140,2</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>64,5</b>	<b>9,9</b>	<b>82,6</b>
<b>Nukus sh.</b>	<b>135,5</b>	<b>20,8</b>	<b>115,4</b>

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 5410,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 56,0 % ni tashkil etdi.



**Qoraqalpo'giston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	<b>2020- yil yanvar-sentabr mlrd. so'm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Qoraqalpo'giston Respublikasi</b>	<b>9660,0</b>	<b>102,5</b>
<b>Amudaryo</b>	259,2	101,2
<b>Beruniy</b>	179,6	101,2
<b>Bo`zatov</b>	66,8	104,3
<b>Qonliko'l</b>	229,1	102,2
<b>Qorao'zak</b>	176,4	104,5
<b>Kegeyli</b>	209,8	116,2
<b>Qo'ng'irot</b>	462,7	104,2
<b>Mo'ynoq</b>	81,1	117,5
<b>Nukus</b>	211,2	101,3
<b>Taxiatosh</b>	1138,3	130,5
<b>Taxtako'pir</b>	138,7	115,5
<b>To'rtko'l</b>	240,3	106,5
<b>Xo'jayli</b>	325,7	107,5
<b>Chimboy</b>	140,1	106,4
<b>Shumanay</b>	102,4	122,7
<b>Ellikqal'a</b>	198,6	107,0
<b>Nukus sh.</b>	5500,0	98,4


**Qoraqalpo'giston Respublikasi ishlab chiqarish hajmida shahar va tumanlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da**



Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 56,9 %), Taxiatosh (11,8 %) hamda Qo'ng'irot (4,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Eng past ko'rsatkich esa Bo'zatov (0,7 %), Mo'ynoq (0,8 %) hamda Shumanay (1,1 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Shahar va tumanlarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, Taxiatosh (2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 130,5 %), Shumanay (122,7 %), Mo'ynoq (117,5 %), Kegeyli (116,2 %) hamda Taxtako'pir (115,5 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.





## **Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da)**



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Bo'zatov (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 214,4 %), Taxiatosh (131,2 %), Qonliko'l (120,2 %), Nukus (119,2 %), Taxtako'pir (119,1 %), Shumanay (118,5 %), Mo'ynoq (114,3 %), Chimboy (111,4 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (17123,3 ming so‘m), Taxiatosh (15362,4 ming so‘m) tumanida o‘rtacha Qoraqalpog’iston Respublikasi darajasi ko‘rsatkichidan (5065,0 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 916,5 ming so'm bo'lgani holda, Nukus shahrida – 1108,6 ming so'mni, Taxtako'pir tumanida – 2197,1 ming so'mni, Qonliko'l tumanida – 2193,2 ming so'mni, Taxiatsosh tumanida – 1489,6 ming so'mni, Mo'ynoq tumanida – 1308,7 ming so'mni Xo'jayli tumanida – 1203,9 ming so'mni tashkil etdi.




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2020-yil yanvar-sentabr oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>5065,0</b>	<b>916,5</b>
<b>Amudaryo</b>	<b>1296,9</b>	<b>450,0</b>
<b>Beruniy</b>	<b>933,1</b>	<b>687,0</b>
<b>Bo`zatov</b>	<b>3090,0</b>	<b>636,9</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>4473,4</b>	<b>2192,7</b>
<b>Qorao'zak</b>	<b>3331,8</b>	<b>598,5</b>
<b>Kegeyli</b>	<b>2885,2</b>	<b>551,0</b>
<b>Qo'ng'irot</b>	<b>3544,7</b>	<b>937,8</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>2534,0</b>	<b>1309,1</b>
<b>Nukus</b>	<b>4180,9</b>	<b>809,2</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>15363,6</b>	<b>1489,7</b>
<b>Taxtako'pir</b>	<b>3426,2</b>	<b>2198,4</b>
<b>To'rtko'l</b>	<b>1115,9</b>	<b>666,5</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>2643,2</b>	<b>1203,7</b>
<b>Chimboy</b>	<b>1244,0</b>	<b>851,1</b>
<b>Shumanay</b>	<b>1812,6</b>	<b>824,1</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>1242,0</b>	<b>831,6</b>
<b>Nukus sh.</b>	<b>17123,9</b>	<b>1108,7</b>

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi  
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida, % da)**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1974,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 20,4 % ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Mo'ynoq hamda Shumanay tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Ellikqal'a tumanida (99,9 %), Beruniy tumanida (83,8 %), To'rtko'l tumanida (62,5 %), Chimboy tumanida (59,3 %) kuzatildi.

Respublikamiz shahar va tumanlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Nukus shahar (8,0 %), Taxiatosh (11,4 %), Qanliko'l (14,9 %), Bo'zatov (22,6 %) va Kegeyli (22,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Respublikada faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini

Bugungi kunda respublikada 2683 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1100 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 41,0 %) Nukus shahriga 543 tasi (20,2 %), To'rtko'l tumaniga 299 tasi (11,2 %), Beruniy tumaniga 258 tasi (9,6 %) to'g'ri kelmoqda.



2020- yil yanvar-sentabr oyida respublikada 541 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 250 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 46,2 %) Nukus shahrida 82 tasi (15,1), Ellikqal'a tumanida% 61 tasi (11,3 %), To'rtko'l tumanida 59 tasi (10,9 %) hamda 48 tasi (8,9 %) Beruniy tumanida tashkil etildi.

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Respublikamizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 25 ta loyiha bo'yicha 81,6 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 707,3 ming AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 322 ta yangi ish o'rnlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rnlari soni 2,6 martaga oshganligi kuzatildi. Shu bilan birga, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining pasayganligi kuzatildi.

### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2019- yil yanvar- sentabr	2020- yil yanvar- sentabr
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	10	25
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	8	21
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	3130,4	81,6
Eksportga qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh dollar</i>	253,8	0,7
Yaratilgan yangi ish o'rnlari, <i>birlik</i>	125	322

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
statistika boshqarmasi sanoat  
statistikas bo'limi Tel.: (61) 224-92-08